SAMARQAND VILOYATI QO‘SHRABOT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 16-sentabr | 197-7-97-Q/25 | Qo‘shrabot tuman hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 3-sentabrdagi “Yer uchastkalarini onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish va kadastr sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish tartib-taomillarini takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 559-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 327-7-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini isloh qilish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, fuqarolarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish, ularda tanlov imkoniyatini kengaytirish hamda yerga oid mulkiy va huquqiy munosabatlarda barqarorlikni ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 3-sentabrdagi “Yer uchastkalarini onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish va kadastr sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish tartib-taomillarini takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 559-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 327-7-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan: kichik sanoat zonalari hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari hududida joylashgan yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarishda ushbu sanoat va tadbirkorlik zonalari direksiyalari buyurtmachi hisoblanishi;

olis va cho‘l hududlarda tashkil etiladigan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ro‘yxati Xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlariga asosan tasdiqlanishi va ular tomonidan, zaruratga ko‘ra, tasdiqlangan ro‘yxatga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib borilishi;

2025-yil 5-sentabrdan boshlab olis va cho‘l hududlarda joylashgan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi bo‘sh yer uchastkalari “1 so‘m” xarid qiymatida elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumanda ko‘p kvartirali turar-joylar qurish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish bo‘yicha auksion g‘olibi hamda tuman hokimligi bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi elektron shartnomani (ofertani) imzolash hamda ushbu shartnoma “Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish” AJ tomonidan ro‘yxatga olinishi, bunda:

ko‘p kvartirali turar-joylar qurish maqsadida auksion savdosida sotilgan yer uchastkalarining loyiha oldi hujjatlarini tayyorlashga 15 kunlik, loyiha ishlarini bajarishga ikki oylik va qurilish ishlarini boshlashga uch oylik muddat berilishi;

yer uchastkasida barpo etiladigan obyektni foydalanishga topshirish muddati;

ko‘p kvartirali turar-joylar qurish uchun ijaraga berish bo‘yicha auksion savdolari ofertasi talablari bajarilmaganda, yer uchastkasi belgilangan tartibda qaytarib olinishi va takroran auksion savdolariga chiqarilishi bo‘yicha o‘rnatilgan tartibga qat’iy rioya qilinishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Q.Xoliqulov, Sh.Xaydarov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi birinchi o‘rinbosari (M.Esonov), tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi (M.Nazarov, Kadastrlar palatasi tuman bo‘limi (A.Turdialiyev) uch oy muddatda maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini hamda ijtimoiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuvlar va shartnomalarni amalga oshirish uchun berilgan yer uchastkalariga huquqni belgilovchi hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish hamda huquqlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish choralarini ko‘rsin.

5. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

tadbirkorlik subyektining qurilish ishlarini boshlash, kredit mablag‘larining ajratilishi, infratuzilma tarmoqlariga ulanish va loyihani foydalanishga topshirish jarayonida yuzaga keladigan masalalari elektron platformaga kiritilgan kundan boshlab o‘n besh kun muddatda bartaraf etilmagan taqdirda, muammoli masalalar toifasiga o‘tkazilishi hamda tuman hokimliklari tomonidan muhokama etib borilishi;

belgilangan muddatlarda foydalanilmagan yer uchastkalarini sud tartibida tuman hokimliklarining tasarrufiga qaytarish uchun hujjatlar yig‘majildini sudga taqdim qilish bo‘yicha xarajatlar mahalliy byudjetning ortiqcha bajarilgan qismi hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi;

yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni bekor qilish to‘g‘risida sud qarori qabul qilinganda, yer uchastkasini takroran realizatsiya qilishdan tushgan mablag‘lar hisobidan ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqi bekor qilingan shaxsga mazkur yer uchastkasini sotib olish uchun haqiqatda to‘lagan mablag‘lari qaytarib berilishi, bunda, yer uchastkasini tanlash materiallarini tayyorlash va auksion o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar chegirib qolinishi belgilanganligi inobatga olinsin.

6. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Z.Astanov), tumandagi mas’ul tashkilot rahbarlari tadbirkorlik va shaharsozlik maqsadlarida realizatsiya qilingan yer uchastkalarini iqtisodiy aylanmaga kiritish, auksion savdolariga qo‘yilgan yer uchastkalarining sotilishi va loyihani amalga

oshirish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish darajasi yuzasidan tumandagi tashkilot rahbarlari va mahallalardagi hokim yordamchilarining faoliyatiga baho berilishi, bunda, iqtisodiy aylanmaga kiritilgan, xususan, qurilish ishlari yakunlanib, binoga egalik huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan yer uchastkasi elektron platformada amalga oshirilgan loyihalar moduliga o‘tkazilishi hamda mazkur yer uchastkasi tumandagi mas’ul tashkilot rahbari va hokim yordamchisi nazoratidan yechilishi bo‘yicha belgilangan tartib asosida ish yuritilishini ta’minlasin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Q.Xoliqulov, Sh.Xaydarov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Z.Astanov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining birinchi o‘rinbosari (M.Esonov), tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi (M.Nazrov), Kadastrlar palatasi tuman bo‘limi (A.Turdaliyev)lar bilan birgalikda tadbirkorlik hamda shaharsozlik maqsadlarida elektron onlayn-auksion savdolarida realizatsiya qilinib, iqtisodiy aylanmaga kiritilmagan yer uchastkalarini doimiy monitoring qilib, amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar yuzasidan har chorakda Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borsin.

8. Tuman hokimining 1-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilsin hamda 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilsin.

9. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Q.Xoliqulov, Sh.Xaydarov), tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi (M.Nazarov), Kadastrlar palatasi tuman bo‘limi (A.Turdaliyev) tumandagi mas’ul tashkilot rahbarlar bilan birgalikda 2025-yil 1-oktabrga qadar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasidan boshqa yerlar toifasiga o‘zgartirilgan yer uchastkalarini belgilangan tartibda realizatsiya qilish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari (Q.Xoliqulov, Sh.Xaydarov) zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.Shakarboyev**

Qo‘shrabot tumani hokimining
2025-yil 16-sentabrdagi
197-7-97-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuman hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. Tuman hokimining 2017-yil 11-martdagi “Vazirlar Mahkamasining “Bitimlarni notarial tasdiqlash tartibini idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llagan holda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 27-fevraldagi 106-son qarori haqida”gi 378-Q-son qarorining 2-bandi yettinchi va sakkizinchi xatboshilari hamda ilovalari chiqarib tashlansin.

Qo‘shrabot tumani hokimining
2025-yil 16-sentabrdagi
197-7-97-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan qarorlari

1. Tuman hokimining 2014-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hududlarning davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2014-yil 14- avgustdagi 231-son qarori to‘g‘risida”gi 324-Q son qarori;

2. Tuman hokimining 2017-yil 20-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ba’zi qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida 472-son qarori haqida”gi 1459-Q son qaroriga 1-ilovaning 4-bandi.

3. Tuman hokimining 2017-yil 12-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 2017 - yil 14-noyabrdagi 915-son qarori haqida”gi 2012-Q-son qaroriga 1-ilovaning 56-bandi.